

UO'K 631.5:634.9.

MANZARALI KO'CHAT YETISHTIRISH ORQALI O'RMONZORLAR BARPO ETISH

Zafarov Og'abek Zafar o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Xalqaro hamkorlik bo'limi hodimi*

Davlatov Rajabbek Toshmamat o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qishloq xo'jalik tarmoqlarini har xil o'rmon ko'chatlari bilan taminlash maqsadida ko'chatxonlar tashkil etish maqsad qilib qo'yilgan. Ko'chatxonalarda tuproqqa ishlov berish daraxt va buta nihollarini o'stirishda va parvarish qilishda ko'chatlar muhim o'rin egallaydi.*

Kalit so'zlari: *o'rmon ko'chatlari, tuproq, daraxt, buta, nixollar, haydov qalamining, rarvarish qilish, yerroziya, o'rmonlar, Urug'lar.*

KIRISH

Hozirgi davrda O'zbekistonda ko'pchilik o'rmon xo'jaliklari, xususiyo xo'jaliklar madaniy o'rmonlar barpo etish va ko'kalamzorlashtirish uchun ko'chatzorlarbarpo etib ko'chat yetishtirishayaptilar. Shu maqsadda daraxt va butalarning turlari bo'yicha urug'yig'ish, qayta ishlash, saqlash va ekishga tayyorlash ishlari bilan o'rmon xo'jalik mutaxassislarining ko'pchilik qismi shug'ullanishlariga to'g'ri keladi va kundan kunga o'rmon urug'chiligining ahamiyati ortib bormoqda. Daraxt va butalarning meva hosil berishiga tashki muxit sharoiti katta tasir ko'rsatadi. Bular iqlim va ekologik sharoitlardir. Meva hosil berishgi tasir etuvchi kompleks omillar yerug'lik, harorat, namlik, xavo, tuproq unumdorligidir.

Yangi o'rmonzolar barpo etishda Respublikamiz O'rta Osiyo mamlakatlari orasida oldingi salmoqli o'rinlarni egallab turibdi. Bu ishlar har xil mintaqalarda 40-45 ming gektar maydonda amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jalik tarmoqlarini har xil mevali manzarali va o'rmon ko'chatlari bilan taminlash maqsadida katta-katta maydonlarda ko'chatxonlar tashkil qilingan. Ushbu ko'chatxonalar har yili 40 mln atrofida ko'chat yetishtiriladi. Shundan 17 mlnni nihollar 23 mlnni esa ko'chatlar tashkil qiladi.

O'rmon ko'chatxonalari o'zining hajmi yo'nalishi maydoni va foydalanish muddatiga qarab bir necha turga bo'linadi.

1. Vaqtinchalik tashkil qilingan ko'chatxalar - yaqin atrofda o'rmon tashkil qilish bilan shug'ullanuvchi tashkilot va korxonalarni ko'chat bilan taminlash maqsadida barpo etiladi. Bu ko'chatxonalardan foydalanish muddati ko'pincha 5 yildan oshmaydi va maydoni 10 gektargacha bo'ladi.

2. Doimiy ko'chatxonalar - bir necha yil davomida ko'chat yetkazib berish uchun mo'ljallangan bo'lib 5-15 gektar va undan ham ko'p maydonga ega bo'ladi. Agar maydoni 25 gektardan oshiq bo'lsa va ko'chatlar bir necha xo'jaliklarni taminlasa hamda yangi texnologiya mexanizmlardan o'g'it va kimyoviy vositalardan keng foydalanilsa ularni bazali nihollar deyiladi.

Ko'chatxonalarda tuproqqa ishlov berish daraxt va buta nihollarini o'stirishda muhim bo'g'im hisoblanadi. Parvarish qilinadiga ko'chatlarning hayotiy sharoiti agrotexnik tadbirlar bilan tartibga solinadi.

Sug'oriladigan sharoitda ko'chatxona maydonlarini takomillash-tirishda asosiy diqqat e'tiborni sug'orish shoxobchalarining miqdoriga va yer maydonining relefiga e'tibor berish zarur. Ko'chatzor uchun ajratilgan maydon tekis yoki unchalik katta bo'lmagan (3-50) qiyalikda bo'lishi kerak.

Qumli sharoitda ko'chatzorlar takomillashtirishda asosiy e'tiborni tuproq tarkibi va undagi namlikka qaratish zarur. Tog'li sharoitda ko'chatxonalar tashkillashtirishda (vaqtinchalik ya'ni nina bargli daraxt ko'chatlari yetishtirish uchun) dengiz satxidan 1200 dana 2000 metr masofagacha e'tiborga olinadi. Shundan yer osti sizot suvlari yaqin maydonlarda tol va teraklarning onalik plantatsiyasi barpo etiladi. Katta hajmdagi ko'chatzorlar bog'lari 1-1,5ga ni tashkil etadi. Keyin esa ushbu maydon rejalashtirilib tekislanadi, tuproqqa birinchi ishlov beriladi, ko'p yillik daraxtzorlar barpo etish uchun ishlab chiqarish shuningdek aholi turar joylari barpo etiladi.

Yerni begona o'tlardan tozalab va namlikni yaxshilab saqlash asosidagi haydash yerni qorahaydash deb nomlanadi. qora haydash kuzda yerni chimga haydash davri bo'ylab o'tkaziladi. Erta bahor boronalash o'tkaziladi, bu esa tuproq tarkibidagi namlikni bug'lanishini kamaytiradi. Butun yoz davrida yerga ya'ni tuproqqa kultivatsiyali ishlov beriladi. Birinchi yerga ishlov berish 5-7 sm chuqurlikda o'tkaziladi, keyin esa tuproqqa yana chuqurok ishlov berila boshlanadi, yozning ohiriga kelib 10-12 sm gacha boradi.

Tuproqqa ishlov berishda asosiy maqsad quydagilardan iborat :

1) Tuproqning haydov qalamining va uning strukturasi tuzulishing o'zgarishi natijasida qulay namlik, havo, issiqlik, oziqlanish rejimini taminlash.

2) Tuproqning pastki qatlamlaridan ozuqa moddalar so'rib olish hisobiga ularning aylanishini kuchaytirish va mikrobiologik jarayonlarga kerakli yo'nalishda tasir qiladi.

3) Kasalliklar va zararkunandalarga duchor bo'lgan begona o'tlarni yo'qotish.

4) Tuproqni suv va shamol eroziyasidan saqlash.

5) Daraxt va buta urug'larini ekish uchun qulay sharoit yaratish.

Daraxt va butalarning asosiy fiziologik funksiyalardan biri bo'lib mineral oziqlanish hisoblanadi. Mineral oziqa moddalar o'simliklarda har xil vazifani bajaradi. Ular o'simliklar to'qimasini tarkibiga kirib har xil reaksiyalarda katalizatorlar rolini o'ynaydi.

Ko'chatxonalarda ko'chat yetishtirishda yaxshi yutuqlarga erishish o'simliklarning mineral ozuqa elementlari ta'minoti bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham ko'chatlar yetishtirishdagi asosiy samara beradigan agrotexnik tadbir, bu-o'g'itlardan foydalanish hisoblanadi. O'g'itlarning tuproqdagi harakati har xil bo'lib, ular tuproqdagi

ozuqa moddalar zahirasini to'ldiradi, ulaning fizik xossalarini yaxshilaydi, mikroorganizmlarning faoliyatini oshiradi.

Ko'chatxona tashkil etishda birinchi navbatda ajratilgan yer maydonini tekislash zarur. Chunki noteks joylarda nixollarni sug'orish ancha muammo tug'diradi bazi paytlarda tekis sug'orilmaslik natijasida urug'larning unib chiqishi past bo'ladi.

Yoz davomida yani har xil begona o'tlardan saqlanish maqsadida 3-4 marotaba 5-12 sm chuqurlikda kultivatsiya qilinadi.

Parvarish bo'limi ikkiga bo'linadi. Birinchi bo'limida ko'chatlar turiga qarab 2 yildan 5 yilgacha o'stiriladi. Tez va o'rta tez o'suvchi daraxt turlarining ko'chatlari teraklar, oq akatsiya, tol, chinor, qayrog'och, kalpa, tikan daraxt, zarang turlari, shumtol, bodomlar.

Birinchi bo'limdan korxona, xo'jaliklarga va boshqa tashkilotlarga ekishni tafsiya beramiz.

Urug'larni ekish meyor va ekish chuqurligi

T/T№	Daraxt va buta turlari	Urug' sepish meyor, kg/ga	Urug'larni ekish chuqurligi, sm
1.	Oq akatsiya	50-137	3-4
2.	Qayrog'och	67-216	1-2
3.	Eman	2000	8-10
4.	Kashtan	625	8-12
5.	Saur archa	300-500	1,5
6.	Grek yong'og'i	1000	8-10
7.	Chinor	67-167	2-3
8.	Oq saksovul	160	3-4
9.	Qora saksovul	67	2-3
10.	Dala zarangi	130	4-5
11.	Virgin archasi	130-417	2-3
12.	Ipak akatsiya	67	3-4

Ikkinchi bo'limda sekin o'sadigan keng yaproqli daraxt ko'chatlari yong'oq, eman, o'tkir bargli zarang hamda igna barglilar qaragay, virgin archasi va archaning barcha boshqa turlari tyanshan archasi kiparislari o'stiriladi. Ikkinchi bo'limni tashkil qilishda qatorlar orasi 1,4 m va ko'chat orasi 1,0 m gacha oshiriladi yoki bir gektar maydonga 7 ming tup ko'chat joylashtiriladi.

XULOSA

Tuproqning haydov qalamining strukturasi tuzulishining o'zgarishi natijasida qulay namlik, havo, issiqlik, oziqlanish rejimini taminlash. Ko'chat yetishtirishda asosiy samara beradigan agroteknika tadbiri, bu o'g'itlardan foydalanish hisoblanib, o'g'itlarning tuproqdagi harakati har xil bo'lib, ular tuproqdagi ozuqa moddalar zahirasini to'ldiradi, ulaning fizik xossalarini yaxshilaydi, mikroorganizmlarning faoliyatini oshiradi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Xonazarov A.A “O‘rmonshilar uchun qo‘llanma”.T.“Mehnat”1992-yil 130-bet.
- 2) Yaskina L.V “ ” Dendrologiya TashTINP “Matbuot” T. 1980, 147 .
- 3) Yuldashov Y.X “Ko‘chatchilik va gulchilik ishlari” T. “Davr nashriyoti” 2013-yil
- 4) Qayimov A.K, E.T. Berdiyev, H.F. Hamrayev, S.A.Turdiyev: “Dendralogiya darslik”. ”Fan va texnologiyalar” nashriyot 2015- yil